

PEDAGOGIK MAHORATNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY TAMOYILLARI

Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
Ro‘zaliyeva Sarvinoz Murodjon qizi
ruzaliyevasarvinoz@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘qituvchining nutqi, didaktik mahorati, muloqot madaniyati, sinfni boshqarish uslubi – bularning barchasi pedagogik mahoratning ajralmas qismlari hisoblanib, mazmuni aynan shu mahoratni tarkib toptiruvchi tamoyillarni ochib berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiy rivojlanish, tashkilotchilik, ta‘lim tizimi, shakl, usul, pedagogik mahorat, yangicha fikrlash, aqliy salohiyat.

Respublika Prezidenti ta'kidlaganidek: "Biz iqtisodiy o'nnglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni ma'naviy o'nnglash, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tam omila uyg'un bo'lishni" - istayotgan bir davrda yashayapmiz. Bu istak esa yoshlar ta'lim - tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kasb egalarini yuksak kasbiy tayyorgarlikka, g'oyaviy-siyosiy e'tiqodga, tashkilotchilik va boshqaruvchilik malakalariga ega bo'lish lozimligini talab etmoqda. Chunonchi, mustaqillik sharoitida mamlakatda ta'lim tizim ining yangilanishi, u o'z navbatida ta'lim - tarbiya mazmunining yangilanishiga olib keldi, natijada o'qitish va tarbiyalashning shakli, usullari, vositalari majmui, o'zbekona ko'rinish kasb etdi hamda milliy urf - odatlarning o'quv - tarbiya jarayoniga faol kirib borishi amalga oshirilmoqda. Bu o'zgarishlar har bir o'qituvchi - tarbiyachini yangicha fikrlashga, sharqona ish yuritishga, tadbirkorlik, ishbilarm onlik asosida ish yuritish ham dam a'naviy – ma'rifiy ishlarning faol ishtirokchisi bo'lishga da'vat etadi. Shuning uchun ham bugungi kunda har davrdagidan ham ko'proq pedagogika fani oldida yangicha fikr yuritadigan yuksak m a'naviy - axloqiy salohiyat, aqliy zakovatga ega bo'lgan o'qituvchi - tarbiyachini tayyorlash, uning kasb mahorati va malakasini uzluksiz takomillashtirish uchun ta'lim va tarbiyaning zamonaviy mazmun, shakl, usul ham vositalarini ishlab chiqish muammosi dolbzarblashmoqda. Darhaqiqat, barcha kasb - korlar tizimida o'qituvchilik kasbi muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi¹.

O'z davrlarida Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Sa'diy Sherziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Husaj Voiz Koshifiy, Abdulla

¹ O'zbekiston Respublikasining 'Ta'lim tosg'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Sharq, 1997, 20-29 betlar.

Avloniy va boshqalar o'qituvchilik kasbi, mashaqqatlari, shuningdek, o'qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo'lgan sifatlar xususida qimmatli ma'lumotlarni o'z asarlarida qizg'in bahs qilishgan. Binobarin, pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan o'qituvchi ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ham ega bo'lmaydi. Yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi bolani tushuna olishi, unga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lishi, qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholashi, yuzaga kelishi ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etishi, pedagogik faoliyat hamisha ilg'orligi, jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayon o'quvchilar ongiga singdirilayotgan ezgu g'oyalarni hayot bilan bog'lashi lozim².

Kasbiy tayyorgarlik jarayonida nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, interaktiv metodlardan foydalangan holda dars o'tish, treninglar va ustoz-shogird tizimi orqali tajriba almashish kabi omillar o'qituvchining kasbiy o'sishida muhim rol o'ynaydi. Aynan shu omillar pedagogik mahoratning mustahkam asosini yaratadi. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy jamiyatda ta'lim sifatini oshirish uchun har bir o'qituvchi o'zining kasbiy kompetensiyalarini, shaxsiy sifatlarini, kommunikativ qobiliyatlarini muntazam ravishda rivojlantirib borishi zarur. Faqat ana shunday pedagoglarga o'quvchilarning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishiga xizmat qila oladi. Shu bois, pedagogik mahoratni shakllantirish masalasi nafaqat o'qituvchining individual mas'uliyati, balki butun ta'lim tizimining ustuvor vazifasidir.

Xulosa shuki Pedagogik mahorat – bu o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonida samarali faoliyat yuritishi, o'quvchilar bilan muvaffaqiyatli muloqotga kirishishi, zamonaviy metodlar va texnologiyalardan foydalanib darsni tashkil eta olishi, shuningdek, o'z shaxsiy fazilatlarini orqali o'quvchilarga ijobiy ta'sir ko'rsatish qobiliyatidir. Ushbu kurs ishida pedagogik mahoratning shakllanishi, unga ta'sir qiluvchi omillar, shaxsiy sifatlar, kasbiy tayyorgarlikdagi yondashuvlar hamda pedagogik amaliyotdagi asosiy usul va vositalar chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida shuni aniqlash mumkinki, pedagogik mahorat o'z-o'zidan shakllanmaydi, u uzluksiz o'qish, tajriba orttirish, o'z faoliyatini tahlil qilish va zamonaviy ta'lim yutuqlarini egallash orqali rivojlanadi. Ayniqsa, o'qituvchining shaxsiy fazilatlarini mehribonlik, sabr, adolat, tashabbuskorlik, muloqotchanlik va o'zini doimiy rivojlantirishga intilishi pedagogik mahoratning ajralmas qismlaridir.

²Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari"
-T.: O'zbekiston. 1997. -315 bet.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida"gi 2005- yil 28-sentyabrdagi PQ 191-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasining 'Ta'lim to'sg'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: Sharq, 1997, 20-29 betlar.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat va mafkura 1-jild. -T.: O'zbekiston, 1996. - 89 bet.
3. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" -T.: O'zbekiston. 1997. -315 bet.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - Toshkent, O'zbekiston, 1999. 48- bet
5. Shavkat Mirziyoyevning "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz"asari
6. Shavkat Mirziyoyevning "Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir"asari